

## KORXONALARDA RAQOBAT RAZVEDKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODOLOGIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH

**Tursunxo‘jayev Sardor Jamoliddin o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste‘molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi ilmiy kotibi, PhD  
Tel: +998 93 582-42-33

### **Annotatsiya**

Maqolada korxonalarda raqobat razvedkasi tizimini rivojlantirish uchun ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan. Attention-LSTM va transfer learning modellarining mijoz xatti-harakatlarini prognozlash va yangi mahsulotlarga talabni aniqlashdagi afzalliklari yoritildi. Mashina o‘rganish va FBS-SE metodologiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda qaror qabul qilishni tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekani asoslab berildi. Raqamli transformatsiya va yashil innovatsiyalar barqaror rivojlanish hamda raqobatbardoshlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari raqobat razvedkasi tizimini yanada samarali qilish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** raqobat razvedkasi, sun‘iy intellekt, mashina o‘rganish, transfer learning, Attention-LSTM, raqamli transformatsiya, FBS-SE metodologiyasi.

### **Аннотация**

В статье рассмотрены возможности использования современных технологий для развития систем конкурентной разведки на предприятиях. Описаны преимущества моделей Attention-LSTM и transfer learning при прогнозировании поведения клиентов и определении спроса на новые продукты. Показано, что технологии машинного обучения и методология FBS-SE играют важную роль в повышении эффективности производства и ускорении процесса принятия решений. Установлено, что цифровая трансформация и «зеленые» инновации оказывают положительное влияние на устойчивое развитие и конкурентоспособность. Результаты исследования позволили выработать практические рекомендации по повышению эффективности систем конкурентной разведки.

**Ключевые слова:** конкурентная разведка, искусственный интеллект, машинное обучение, transfer learning, Attention-LSTM, цифровая трансформация, методология FBS-SE.

### **Abstract**

The article explores the potential of advanced technologies for developing competitive intelligence systems in enterprises. The advantages of Attention-LSTM and transfer learning models in predicting customer behavior and forecasting demand for new products are highlighted. It is shown that machine learning technologies and the FBS-SE methodology play a key role in increasing production efficiency and accelerating decision-making. Digital transformation and green innovations are found

to have a positive impact on sustainable development and competitiveness. The research results provide practical recommendations for enhancing the effectiveness of competitive intelligence systems.

**Keywords:** competitive intelligence, artificial intelligence, machine learning, transfer learning, Attention-LSTM, digital transformation, FBS-SE methodology.

## KIRISH

Raqobat muhitining murakkablashuvi va bozor talablarining o'zgaruvchanligi korxonalaridan tezkor, asoslangan va uzoq muddatli istiqbolni hisobga olgan qarorlar qabul qilishni talab etadi. Bunday sharoitda raqobat razvedkasi tizimlari korxonalarining strategik rivojlanishida muhim vosita bo'lib, ular orqali bozor tendensiyalarini tahlil qilish, raqiblarning faoliyatini baholash va mijozlarning xatti-harakatlarini prognozlash mumkin bo'ladi. Raqobat razvedkasi tizimlari nafaqat mavjud vaziyatni o'rganish, balki kelajakdagi imkoniyat va xavflarni aniqlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu tizimlarning samaradorligini keskin oshirdi. Ilg'or algoritmlar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, bozor ehtiyojlarini aniq prognozlash va ishlab chiqarish hamda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari kengaydi. Attention-LSTM va transfer learning modellarining joriy etilishi mijozlar xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish va yangi mahsulotlarga bo'lgan talabni aniqlashda yuqori natijalar berishi aniqlangan [1], [2].

Mashina o'rganish texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va real vaqt rejimida nazoratni kuchaytirishga xizmat qilmoqda [3]. Shu bilan birga, FBS-SE metodologiyasi ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini qayta konfiguratsiya qilish imkoniyatini yaratib, korxonalarining moslashuvchanligini ta'minlamoqda [4]. Raqamli transformatsiya va yashil innovatsiyalar esa nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham barqarorlikni oshirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi [5], [6].

Korporativ boshqaruv jarayonlarida sun'iy intellektni integratsiya qilish ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish sifatini yaxshilab, strategik boshqaruvni yangi bosqichga olib chiqmoqda [7], [8]. Shu bois, ilg'or texnologiyalarni raqobat razvedkasi tizimiga tatbiq etish korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlash, bozor talablariga tezkor moslashish va uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur tadqiqot ushbu yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, ularning afzalliklarini aniqlash va korxonalar faoliyatida qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirish, ayniqsa raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlar yordamida qaror qabul qilishni takomillashtirish so'nggi yillarda ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tadqiqotlarda asosan ilg'or algoritmlar, raqamli transformatsiya jarayonlari va korporativ boshqaruv tizimlarida AI integratsiyasining

afzalliklari keng o'rganilgan. Quyida ushbu yo'nalish bo'yicha asosiy ilmiy ishlanmalar umumlashtirilgan holda tahlil qilinadi.

Mijoz xatti-harakatlarini prognozlash va ularni aniq segmentlarga ajratishda chuqur o'rganish modellaridan foydalanish so'nggi yillarda yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda. Attention-LSTM modeli mijozlarning xarid qilish odatlari, xarajatlar dinamikasi va ularning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilishda aniq natijalar beradi [1]. Ushbu yondashuv mijozlarni aniqlik bilan segmentatsiya qilish, maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Yangi mahsulotlarga bo'lgan talabni oldindan aniqlashda transfer learning asosidagi modellar keng qo'llanmoqda. Bu metod cheklangan tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lgan bozorlarda ham yuqori aniqlikka erishishga imkon beradi [2]. Transfer learning mavjud tajriba va ma'lumotlarni yangi mahsulotlarga tatbiq etish orqali bashoratlash jarayonini tezlashtiradi hamda ishlab chiqarish va marketing rejalashtirishida qo'shimcha ustunlik beradi.

Ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarida mashina o'rganish texnologiyalarini joriy etish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Bu texnologiyalar real vaqt rejimidagi monitoring, avtomatlashtirilgan tahlil va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi [3]. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlarida xarajatlar kamayadi, mahsulot sifati yaxshilanadi va qaror qabul qilish jarayonlari tezlashadi.

Boshqaruv tizimlarining moslashuvchanligini oshirishda FBS-SE metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod tizimlarni qayta konfiguratsiya qilish imkonini berib, ishlab chiqarish sharoitlaridagi o'zgarishlarga tezkor moslashuvni ta'minlaydi [4]. Bu yondashuv korxonalar uchun o'zgaruvchan bozor talablariga moslashish va uzoq muddatli samaradorlikni saqlab qolishda foydali bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari va yashil innovatsiyalar uyg'unligi korxonalarining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilishicha, energetika sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi [5]. Shu bilan birga, ekologik monitoring tizimlarida sun'iy intellektning qo'llanilishi shahar infratuzilmasini samarali boshqarish va ekologik xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi [6].

Korporativ boshqaruv tizimlarida AI integratsiyasi bo'yicha tadqiqotlar tashkilot madaniyati bilan uyg'unlashgan holda sun'iy intellektning samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Ochiq va innovatsiyaga moyil tashkilotlar AI texnologiyalaridan yanada samarali foydalana olishi aniqlangan [7]. Bundan tashqari, ma'lumotlar bazalari bilan AI integratsiyasi katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, foydali qarorlar chiqarish va raqobat ustunligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi [8].

Yuqoridagi tadqiqotlar umumlashtirilgan holda ko'rsatadiki, ilg'or algoritmlar va AI asosidagi texnologiyalar mijoz xatti-harakatlarini prognozlashdan tortib ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini optimallashtirishgacha bo'lgan jarayonlarda keng

qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, raqamli transformatsiya va yashil innovatsiyalarni uyg'unlashtirish korxonalarining nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu bois, korxonalarda raqobat razvedkasi tizimini takomillashtirish uchun turli metod va texnologiyalarni kompleks ravishda integratsiya qilish zarurligi ilmiy ishlanmalar orqali tasdiqlangan.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda raqobat razvedkasi tizimini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or texnologiyalarni baholash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, bibliometrik tahlil yordamida so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy ishlanmalar o'rganilib, asosiy metodologik yo'nalishlar ajratib olindi. Keyin kontent-tahlil asosida Attention-LSTM, transfer learning va FBS-SE metodologiyalarining afzalliklari hamda qo'llanish sohalari taqqoslandi. Shu orqali mijoz xatti-harakatlarini prognozlash, ishlab chiqarishni optimallashtirish va qaror qabul qilish samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlar aniqlashtirildi. Yakuniy bosqichda ssenariy tahlili orqali ilg'or texnologiyalarni joriy etish natijasida kutiladigan strategik ustunliklar baholandi. Ushbu yondashuvlar o'zaro uyg'unlashtirilib, tanlangan modellar samaradorligi va korxonaga boshqaruviga qo'shadigan hissasi har tomonlama tahlil qilindi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ilg'or yondashuvlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tahlil jarayonida sun'iy intellekt, mashina o'rganish va raqamli transformatsiya asosidagi metodlar, shuningdek, korporativ boshqaruvda AI integratsiyasi orqali qaror qabul qilish imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur yo'nalishlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, tadqiqotning har bir qismi umumiy konsepsiyani to'ldiruvchi ilmiy asos vazifasini bajardi.

Avvalo, raqobat razvedkasi tizimining korxonalarda qo'llanish darajasi mavjud tadqiqotlar asosida baholandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqobatbardosh korxonalar ilg'or axborot tizimlari va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlaridan keng foydalanmoqda. Ayniqsa, yuqori qiymatli mijozlarni aniqlash va ularning xarid xatti-harakatlarini prognozlashda attention mexanizmi bilan boyitilgan LSTM modeli samarali natijalar berishi aniqlangan [1]. Shu bilan birga, yangi mahsulotlarga bo'lgan talabni aniqlashda transfer learning asosida qurilgan modellar resurslarni oqilona taqsimlash va strategik qarorlarni optimallashtirish imkonini beradi [2].

Tanlangan modellar va metodlarning qo'llanish sohasi, ustunliklari va tadqiqotda ularning tutgan o'rni 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Attention-LSTM modeli mijoz xatti-harakatlarini tahlil qilish va yuqori qiymatli segmentlarni aniqlashda samarali bo'lsa [1], Transfer Learning yondashuvi yangi mahsulotlarga talabni aniqlash uchun cheklangan ma'lumotlar bilan ishlashda sezilarli ustunlikka ega [2]. Machine Learning texnologiyalari ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi [3], FBS-SE

metodologiyasi esa tizimlarni qayta konfiguratsiya qilish orqali moslashuvchan va qayta ishlatiladigan dizaynlarni yaratishga xizmat qiladi [4]. Bu modellar bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar bo'lib, kompleks integratsiya korxonalarining strategik rivojlanishini jadallashtirishi mumkin.

1-jadval.

**Metodlar va ularning qo'llanish sohalari<sup>1</sup>**


Metod / Model	Qo'llanish sohasi	Asosiy ustunliklari
Attention-LSTM	Mijoz xatti-harakatini prognozlash[1]	Yuqori aniqlik, segmentatsiyada foydali
Transfer Learning	Yangi mahsulotlarga talabni bashorat[2]	Cheklangan ma'lumotlarda yuqori natija
Machine Learning (ML)	Ishlab chiqarish va boshqaruv[3]	Avtomatlashtirish, real vaqt tahlili
FBS-SE metodologiyasi	Tizim dizayni va qayta konfiguratsiya[4]	Moslashuvchanlik, qayta ishlatish

Keyingi bosqichda sun'iy intellekt va mashina o'rganish asosidagi qaror qabul qilish modellarining samaradorligi ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilingan holda tahlil qilindi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, mashina o'rganish texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, real vaqt rejimidagi monitoring va optimallashtirishni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini beradi [3]. Shu bilan birga, FBS-SE metodologiyasi tizimlarni qayta konfiguratsiya qilish va funksiyalarni moslashuvchan boshqarish orqali samarali dizayn yaratish imkonini beradi [4]. Bu yondashuvlar korxonalarining ichki jarayonlarini optimallashtirish bilan birga, qaror qabul qilishda tezkorlik va aniqlikni oshiradi.

Raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanishning raqobat ustunligiga ta'siri ham muhim tahlil obyekti bo'ldi. Energetika sektorida raqamli texnologiyalar va yashil innovatsiyalarning joriy etilishi samaradorlikni oshirish bilan birga, barqaror rivojlanishni ta'minlayotgani qayd etilgan [5]. Shu kabi, ekologik monitoring tizimlariga sun'iy intellektni joriy etish shahar infratuzilmasini samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanishga hissa qo'shmoqda [6].

AI integratsiyasining samaradorlikka vaqt bo'yicha ta'siri 1-rasmda ifodalangan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2020–2025-yillar oralig'ida AI texnologiyalarining korxonalariga joriy etilishi ortishi bilan samaradorlik ko'rsatkichi 55% dan 88% gacha oshgan. Bu dinamik o'sish AI integratsiyasi korxonalarida avtomatlashtirish, real vaqt monitoringi va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlarini kuchaytirishi bilan izohlanadi. Shuningdek, samaradorlikning bunday oshishi korxonalarining raqobatbardoshligi va strategik moslashuvchanligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



**1-rasm. AI integratsiyasining korxonalar samaradorligiga ta'siri[1],[3],[7].**

Mazkur natija shuni anglatadiki, AI texnologiyalarining keng joriy etilishi faqat ishlab chiqarish samaradorligini emas, balki strategik qaror qabul qilish jarayonlarining tezkorligini va aniqligini oshiradi. Shu sababli, ilg'or modellarni kompleks ravishda integratsiya qilish korxonalariga nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki barqaror raqobat ustunligini ham beradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, sun'iy intellekt va mashina o'rganish asosidagi modellar korxonalarda raqobat razvedkasi tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Attention-LSTM modeli mijoz xatti-harakatlarini aniq prognozlash va yuqori qiymatli segmentlarni aniqlashda samarali bo'ldi [1], transfer learning esa yangi mahsulotlarga bo'lgan talabni bashorat qilishda yuqori natijalar berdi [2]. Mashina o'rganish texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytirdi [3], FBS-SE metodologiyasi esa tizimlarni qayta konfiguratsiya qilish orqali moslashuvchan boshqaruvni ta'minladi [4]. Raqamli transformatsiya va yashil innovatsiyalar barqarorlikni oshirib, korxonalariga iqtisodiy hamda ijtimoiy ustunlik berdi [5], [6]. AI integratsiyasi korporativ boshqaruv samaradorligini oshirib, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirdi [7], [8].

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, korxonalarda raqobat razvedkasi tizimini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- AI asosidagi modellarni joriy etish – Attention-LSTM va transfer learning modellaridan foydalanib, mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va talabni prognozlash jarayonlarini yaxshilash.

- Ishlab chiqarishni optimallashtirish – mashina o‘rganish texnologiyalarini integratsiya qilib, jarayonlarni avtomatlashtirish va xarajatlarni kamaytirish.

- Moslashuvchan boshqaruv tizimlarini qo‘llash – FBS-SE metodologiyasi yordamida bozor talablariga tezkor moslashadigan yechimlarni yaratish.

- Raqamli transformatsiya va yashil innovatsiyalarni kengaytirish – barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun ekologik samarador texnologiyalarni joriy etish.

- AI integratsiyasini boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish – ma’lumotlar bazalari bilan AI uyg‘unligini kuchaytirib, tezkor va aniq qaror qabul qilishni ta’minlash.

Bu yondashuvlar korxonalarining strategik ustunligini oshirish, bozor talablariga moslashuvchanlikni kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish uchun keng imkoniyat yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Kasemrat, R., & Kraiwanit, T. (2025). Attention-enhanced LSTM for high-value customer behavior prediction: Insights from Thailand’s e-commerce sector. *Intelligent Systems with Applications*, 26, 200523.

<https://doi.org/10.1016/j.iswa.2025.200523>

2. Ahmed, S., Chakraborty, R. K., & Essam, D. L. (2025). A multi-source multi-layer-based transfer learning approach for forecasting customer demands of newly launched products. *Intelligent Systems with Applications*, 27, 200548.

<https://doi.org/10.1016/j.iswa.2025.200548>

3. Ahmed, Y. S., & Milani, A. S. (2025). A review of strategies, challenges, and ethical implications of machine learning in smart manufacturing. *Decision Analytics Journal*, 16, 100591. <https://doi.org/10.1016/j.dajour.2025.100591>

4. Liu, Y., Wang, J., Li, Y., Dong, W., & Dang, L. (2025). Research on function-behavior-structure-based software engineering methodology for software defined systems. *Space Habitation*, 1, 100003. <https://doi.org/10.1016/j.spaceh.2025.100003>

5. Żywiołek, J., Wolniak, R., & Grebski, W. W. (2025). From traditional to digital: The paradigm shift in the energy sector through green innovation. *Energy Reports*, 14, 1–16. <https://doi.org/10.1016/j.egy.2025.05.080>

6. Nugroho, H. Y. S. H., Basuki, T. M., Pratiwi, E., Savitri, E., et al. (2025). Advancing air quality monitoring systems towards sustainable green development: Insight for metropolitan cities in Indonesia. *Environmental and Sustainability Indicators*, 26, 100649. <https://doi.org/10.1016/j.indic.2025.100649>

7. Shokrollahi, M. (2025). Studying the role of organizational culture and artificial intelligence integration in business performance. *Journal of Investment Banking and Finance*. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/393902800>

8. Achanta, P. R. D. (2024). Operationalizing AI with MongoDB Atlas to streamline scalable NoSQL intelligence. *ResearchGate*. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/393844296>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, iyul, 7-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**